

**UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/05.05.2023.K/T.35.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

MIXLIYEV OYBEK AVLOYOROVICH

**DOLOMITLARNI MINERAL KISLOTALAR BILAN MAGNIY
BIRIKMALARI, SUYUQ VA DONADOR O'G'ITLARGA KOMPLEKS
QAYTA ISHLASH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQUV**

02.00.13 – Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of the abstract of dissertation doctor of science

Mixliyev Oybek Avloyorovich

Dolomitlarni mineral kislotalar bilan magniy birikmalari, suyuq va donador o‘g‘itlarga qayta ishlashning fizik-kimyoviy asoslari va texnologiyasini ishlab chiqish..... 3

Михлиев Ойбек Авлоёрович

Физико-химические основы и разработки технологии комплексной переработки доломитов минеральными кислотами на соединений магния, жидких и гранулированных удобрений..... 30

Mikhliyev Oybek Avloyorovich

Physicochemical principles and development of technology for complex processing of dolomites with mineral acids for magnesium compounds, liquid and granular fertilizers..... 59

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 63

**UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/05.05.2023.K/T.35.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

MIXLIYEV OYBEK AVLOYOROVICH

**DOLOMITLARNI MINERAL KISLOTALAR BILAN MAGNIY
BIRIKMALARI, SUYUQ VA DONADOR O'G'ITLARGA KOMPLEKS
QAYTA ISHLASH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

02.00.13 – Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.DSc/T776 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent kimyo-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ionx.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Mirzakulov Xoltura Chorievich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Kucharov Baxrom Xayriyevich
texnika fanlari doktori

Turayev Zokirjon
texnika fanlari doktori, dotsent

Umirov Farxod Ergashovich
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona politexnika instituti


Dissertatsiya himoyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti huzuridagi DSc.02/05.05.2023.K/T.35.02 raqamli Ilmiy kengashning «15» yanvar 2025 yil soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-a. Tel.: (99871) 262-56-60; faks: (99871) 262-79-90; e-mail: ionxanruz@mail.ru).


Dissertatsiya bilan Umumiy va noorganik kimyo institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 48 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo-Ulug'bek ko'chasi, 77-a. Tel.: (99871) 262-56-60).


Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «26» dekabr kuni tarqatildi.

(2024 yil «26» dekabrda 48 raqamli reyestr bayonnomasi).




Usanboyev N.X.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor


Shukurov J.S.
Ilmiy darajalarni beruvchi ilmiy kengash kotibi,
t.f.d., professor


Namozov Sh.S.
Ilmiy darajalarni berish bo'yicha ilmiy kengash
Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor, akademik

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati: Dunyoda kimyo sanoati va nanotexnologiyalarning rivojlanishi bilan turli xildagi kimyoviy birikmalarga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Bu borada kimyo sanoatida -magniy birikmalaridan, bishofit, magniy gidroksid, magniy oksid, magniy sulfati va nitrati, qishloq xo‘jaligida - suyuq va donodor tarkibida kalsiy va magniy saqlagan kompleks o‘g‘itlar alohida o‘rin tutadi. Shu bilan birga, suyuq o‘g‘itlardagi ozuqa moddalarining o‘simliklarda ta‘sir ko‘effitsiyenti juda yuqori bo‘lib, bu qurg‘oqchilik va suv resurslarining yetishmasligi sharoitlarida ham iqtisodiy jihatdan samarali hisoblanadi. Ushbu turdagi kimyoviy birikmalar olishni ilmiy va texnologik asoslarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda dolomit mineralini qayta ishlab turli ko‘rinishdagi kalsiy va magniy saqlagan tuzlar, tarkibida turlicha oziqa elementlariga ega bo‘lgan o‘g‘itlar olish va ularni samarali olinish texnologiyalarini ishlab chiqish bo‘yicha bir qator ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, dolomitni mineral kislotalar bilan magniy gidroksid va magniy oksidga qayta ishlash texnologiyasini ishlab chiqish, magniyni ajratilgan aylanma eritmani qayta ishlash, gips ajratish va tarkibida magniy sulfat tutgan sulfat kislota ekstraktini flatatsion kaliy xlorid tuzi bilan konversiya qilib kaliy sulfat olish, dolomitni mineral kislotalar aralashmasi, sulfat va nitrat hamda sulfat va xlorid kislotalari bilan parchalab suyuq va kristallangan magniy nitrat o‘g‘iti va bishofitni olishni sanoat miqyosida ishlab chiqarishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda tarkibida magniy tutgan xomashyolarni qayta ishlab kimyo sanoatini magniyli birikmalar va tarkibida kalsiy va magniy saqlagan o‘g‘itlar olish borasida muayyan ilmiy-amaliy natijalarga erishilmoqda. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish”ga¹ qaratilgan muhim vazifalar belgilangan. Bu borada, dolomitni magniy gidroksid va oksidi, aylanma eritmalarni qayta ishlab suyuq va donodor azot-kalsiyli o‘g‘itlar olish, dolomitni sulfat kislota, sulfat va nitrat kislotalar, sulfat va xlorid kislotalari bilan parchalab magniy birikmalari-magniy nitrati, sulfati va xloridlarining suyuq va kristallangan tuzlarini hamda kaliy sulfat va qurilish gipsini olish, shuningdek, magniy sulfatni kaliy xlorid bilan konversiya qilib kaliy sulfati va magniy xloridlarini olish texnologiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF – 60 - son farmoni, 2019 yil 3 apreldagi PQ – 4265 - son “Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020 yil 28 dekabrda PQ – 4937 - son “O‘zbekiston

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi» to‘g‘risidagi PF-60 Farmoni

Respublikasining 2021-2023 yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi, 2021 yil 13 fevraldagi PQ – 4992 - son "Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sog'lomlashtirish, yuqori qo'shilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi: Mazkur tadqiqot Respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining VII "Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar" ustuvor yo'nalishiga muvofiq holda bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy - tadqiqotlar sharhi². Sho'r ko'llar namokobi, dengiz suvi va tabiiy qatlamlar osh tuzi, bishofit, magniy oksid, natriy va kaliy sulfatiga qayta ishlashga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, US Magnesium LLC va Mineral Research Development (AQSH), Israil Chemicals Limited ICL va Dead Sea Magnesium Ltd (Isroil), SDIC Xinjiang Luobopo Potash Co Ltd., Jinzhou Huacheng Magnezium Company va Weifang Bell Chemical Co Ltd (Xitoy), Rima Industrial (Braziliya), Magnohrom (Serbiya), POSCO (Janubiy Koreya), "Karabogazsulfat" IB (Turkmaniston), Xarkov politexnika instituti (Ukraina), Mendeleev nomidagi RKTU va Bashqortostan Respublikasi amaliy tadqiqotlar instituti (Rossiya), Toshkent kimyo-texnologiya instituti hamda Umumiy va noorganik kimyo institutida (O'zbekiston) olib borilmoqda.

Jahonda ko'llar aralash rapasi, dengiz suvi va tuzli qatlamlarni qayta ishlashga oid jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida qator, ilmiy natijalar olingan: Yuta shtati Katta sho'r ko'li rapasi hamda O'lik dengiz sho'r suvini quyosh havza-bug'latgichi va vakuum-bug'latgich uskunalari qo'llash orqali bug'latish yo'li bilan bishofit olishning ilmiy asoslari yaratilgan (Great Salt Lake Minerals Corp, Kaiser Refractories va US Magnesium LLC, AQSH, Dead Sea Magnesium Ltd, Isroil); dengiz suvini kuydirilgan dolomit yoki ohak bilan aralashtirish yoki Sivash ko'li aralash rapasi va Volgograd bishofitini ammoniyashtirish yo'li bilan magniy gidroksidi va oksidi olish usuli ishlab chiqilgan (South Bay Salt Works Chula Vista, AQSH va Jinzhou Huacheng Magnezium Company, Xitoy, "Brom" OAJ, Ukraina, "Kaustik" ICHB, Rossiya); sho'r ko'llar nomokobi va dengiz suvlari chuqur qayta ishlash yo'li bilan birlamchi (metall) magniy, titanli g'alvir va po'lat ishlab chiqarilgan (Rima Industrial Braziliya; Magnohrom, Serbiya; POSCO, Janubiy Koreya; Chaoyang Jinda Titanium Co. Ltd, Xitoy); Kora-Bogaz-Gol ko'rfazi ustki va pastki namokoblaridan mirabilit, epsomit va bishofit ishlab chiqarilgan ("Karabogazsulfat" IB, Turkmaniston); kalsinatsiyalangan soda chiqindisini kalsiy va natriy xloridi, karbonat angidridi va kalsiy oksidi, sement qo'shimchasi, defoliant va tuproq mahkamlagichiga qayta ishlash usullari ishlab chiqilgan

² Диссертация мавзуси бўйича хорижий илмий-тадқиқотлар шарҳи <http://www.scholar.google.com> <http://www.sciencedirect.com> ва бошқа манбалар асосида тайёрланган.

(Sterlitamak “Soda”, “Lisichan soda” OAJ, Rossiya, Ukraina va Toshkent kimyo texnologiya instituti va Umumiy noorganika kimyo instituti).

Dunyoda ko‘llarning aralash tuzlari, dengiz suvi, soda chiqindisidan natriy va kaliy sulfati, natriy bikarbonati, natriy va magniy xloridining toza tuzlarini olish bo‘yicha quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqot olib borilmoqda, jumladan: ko‘llar rapasi va aralash tuzlarni har tomonlama fizik-kimyoviy xususiyatlarini aniqlash; ularni qo‘shimchalardan tozalash usulini ishlab chiqish; tozalangan rapani bishofit va magniy gidroksidga qayta ishlash; sulfat-xloridli tuzni natriy sulfat va xlorid, magniy oksidga kompleks qayta ishlash texnologiyasini yaratish; soda ishlab chiqarish chiqindisini maqsadli mahsulotlarga qayta ishlash.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi: Ilmiy-texnik adabiyotlar va patentlarda tarkibida magniy saqllovchi xomashyo manbalarini qayta ishlab magniy gidroksid, magniy nitrat, magniy sulfat, magniy xlorid va kaliy sulfat tuzlari hamda qurilish gipsi olish usullari keng yoritilgan. Bu borada, suyuq va suspenziyali o‘g‘itlarning tovar xususiyatlarini yaxshilash, ularning termik barqarorligini oshirish, ularni olish texnologiyasini ishlab chiqish bo‘yicha L.T. Herbert, S.S.Lanyi, R. Slinksiene, C.James, G. Panayotova, H. Travis, B. Marion, V. N.Mishenko, A.G. Stepchenko, O.B. Dormeshkin va boshqa olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

Respublikamizda M.N. Nabiyeu rahbarligida mineral o‘g‘itlar texnologiyasini ishlab chiqish bo‘yicha yirik ilmiy maktab shakllangan bo‘lib, bu borada bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, B.M. Beglov, Sh.S. Namazov, S. To‘xtayev, A.M. Amirova, X.Ch. Mirzakulov, R.R. Tojiyev, A.M. Reymov, D.A. Ergashev S.M.Tojiyev va boshqa olimlar tomonidan O‘zbekistondagi turli xil dolomitlarning xlorid kislotali va fosfat kislotali parchalanish jarayonlari batafsil o‘rganilgan.

Ilmiy-texnik adabiyotlarda O‘zbekistonning turli dolomit konlaridagi dolomit miqdori bo‘yicha geologik-mineralogik ma‘lumotlar mavjud bo‘lib, zahirasi va ularni kislotali qayta ishlash imkoniyatlari haqida bayon qilingan. Kalsiy va magniy tuzlari asosida turli xil konsentrlangan fosfor saqllovchi o‘g‘itlar hamda defoliantlar olish imkoniyatlari keltirilgan bo‘lsada, ammo dolomit xomashyolarni nitrat kislota, sulfat kislota, sulfat va nitrat kislotalar hamda sulfat va xlorid kislotalar aralashmalari bilan bosqichma-bosqich parchalash orqali magniyli birikmalar- magniy gidroksid, magniy nitrat, magniy sulfat, magniy xlorid va kaliy sulfat tuzlari hamda qurilish gipsleri va ular asosida alibaster olish, hamda nordon aylanma eritmalarini qayta ishlash jarayonlari ilmiy va texnologik jihatlari batafsil o‘rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent kimyo-texnologiya institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ID-2-003 - «Karaumbet va Borsakelmas ko‘llari rapalaridan natriy xlorid, natriy sulfat, magniy xlorid va magniy oksid ishlab chiqarishni tajriba sinovlarini o‘zlashtirish» (2009-2010 yy.) mavzusidagi innovatsion loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Dehqonobod dolomit xomashyosini mineral

kislotalar yordamida qayta ishlab, magniy saqlagan birikmalar olish va suyuq va donadorlangan azot-kalsiyli va azot-kalsiy-magniyli o'g'itlar olish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Dehqonobod koni dolomitining kimyoviy tarkibini o'rganish;
dolomitni mineral kislotalar (HNO_3 , H_2SO_4 , HCl) bilan parchalash jarayonlarining maqbul texnologik ko'rsatkichlarini o'rganish;

Dolomitni mineral kislotalar bilan parchalanish jarayonida hosil bo'lgan ko'pikni "PAA-gel va Struktol SB 2195" lar ta'sirida kamaytirish;

tindirilgan azot kislotali eritmani gazsimon ammiak bilan neytrallanish jarayonini magniy gidroksidining cho'kish darajasiga va kimyoviy tarkibiga ta'sirlarini o'rganish;

aylanma eritmani karbamid va ammoniy nitrat bilan qayta ishlab suyuq va donodor azot-kalsiyli, azot-kalsiy-magniyli va magniyli o'g'itlar olish jarayonlarining maqbul sharoitlarini aniqlash;

magniy sulfat eritmasi va kaliy xlorid tuzlarini koversiya qilib kaliy sulfat va magniy xlorid (bishofit) olish jarayonini o'rganish.

Dehqonobod koni dolomit xomashyosidan magniyli birikmalar- $\text{Mg}(\text{OH})_2$, $\text{Mg}(\text{NO}_3)_2$, MgSO_4 , MgCl_2 va K_2SO_4 tuzlari hamda qurilish gipsleri va alibaster olishning moddiy balansi va texnologik sxemasini ishlab chiqish, hamda texnik-iqtisodiy hisoblarni amalga oshirish;

Dehqonobod koni dolomitini mineral kislotalar bilan kompleks qayta ishlab, magniyli birikmalar va K_2SO_4 tuzi, qurilish gipsi, albaster, hamda aylanma eritmani karbamid yoki ammoniy nitratlar asosida suyuq va donodor azot-kalsiyli va magniyli o'g'itlar olishni tajriba-sanoat sharoitlarida ishlab chiqarish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Dehqonobod koni dolomiti, nitrat kislota, sulfat kislota, xlorid kislota, "PAA-gel va Struktol SB 2195", magniy gidroksid ishlab chiqarishda hosil bo'ldigan aylanma eritmalar, magniy nitrat, magniy sulfat, kaliy sulfat va qurilish gipsleri olingan.

Tadqiqotning predmeti Dehqonobod koni dolomitini mineral kislotalar bilan kompleks qayta ishlab magniy gidroksid, magniy nitrat, magniy sulfat, magniy xlorid va kaliy sulfat, qurilish gipsi, albaster olish, hamda suyuq va donodor azot-kalsiyli va magniyli o'g'itlar olish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida kimyoviy, fotokolorimetrik, titrimetrik, kompleksometrik, gravimetrik va fizik-kimyoviy, rentgenografik, IQ-spektroskopik, skanerlovchi elektron mikroskopik hamda tajriba ma'lumotlarini statistik qayta ishlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Dehqonobod koni dolomitini mineral kislotalar bilan qayta ishlashning moslashuvchan va samarador texnologiyasi ishlab chiqilgan;

dolomitni nitrat kislota bilan parchalash va gazsimon ammiak bilan ammonizatsiyalash orqali magniy gidroksidi ajratib olingan;

Dehqonobod koni dolomit xomashyosini HNO_3 bilan kompleks qayta ishlab $\text{Mg}(\text{OH})_2$ olish jarayonida hosil bo'lgan, aylanma eritmalarini utilizatsiya qilib suyuq holdagi azot-kalsiyli va magniyli hamda donodor azot-kalsiyli o'g'itlar

olishning moslashuvchan texnologiyasi ishlab chiqilgan;

sho‘r erlar uchun Dehqonobod koni dolomit xomashyosini kompleks qayta ishlab magniy gidroksidi, aylanma eritmadan esa suyuq va donodorlangan azot-kalsiyli va magniyli o‘g‘itlar olish usullari ishlab chiqilgan;

sirt passiv moddalar (“PAA-gel” va “Struktol SB 2195”) larning dolomit xomashyosini mineral kislotalar bilan parchalash jarayonidagi ko‘pik karraligiga va filtrlanish tezligiga ta’sirlari aniqlangan;

dolomitni sulfat kislotali parchalash jarayoniga va filtrlanish tezligiga texnologik parametrlarning ta’sirlari va sulfat kislotali nordon bo‘tqani filtrlash orqali ajratib olingan qattiq va suyuq fazalarning kimyoviy va tuz tarkiblari aniqlangan;

magniy sulfat eritmasi va kaliy xlorid tuzlarini koversiya qilib kaliy sulfat va magniy xloridlarni olish jarayonining texnologik sxemasi ishlab chiqilgan;

dolomitni sulfat - nitrat va sulfat - xlorid kislotalari aralashmasi bilan parchalab suyuq va kristallangan magniy birikmalari va qurilish gipsi olish va aralash kislotali nordon bo‘tqalarni filtrlanish tezligiga texnologik parametrlar ta’sirlari va filtrlash orqali ajratib olingan qattiq va suyuq fazalarning kimyoviy va tuz tarkiblari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Dehqonobod koni dolomit xomashyosini mineral kislotalar bilan parchalab magniyli birikmalar va K_2SO_4 tuzi hamda suyuq va donodorlangan azot-kalsiyli va magniyli o‘g‘itlar olishning maqbul sharoitlari aniqlangan;

Dolomitni mineral kislotalar bilan qayta ishlab magniyli birikmalar va K_2SO_4 tuzlari hamda qurilish gipsi olish va bir vaqtning o‘zida suyuq va donodor azot-kalsiyli va magniyli o‘g‘itlar olishning kompleks ta’siri aniqlangan;

“Dehqonobod kaliy zavodi” AJda dolomit xomashyosidan magniyli birikmalar- $Mg(OH)_2$, $Mg(NO_3)_2$, $MgSO_4$, $MgCl_2$ va K_2SO_4 tuzi va qurilish gipsi hamda suyuq va donodor azot-kalsiyli va magniyli o‘g‘itlar olish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi: Zamonaviy kimyoviy va fizik-kimyoviy tahlil natijalari, hamda taklif etilgan magniy birikmalari, suyuq va donodor azot-kalsiyli va magniyli o‘g‘itlari laboratoriya tajribalari va “Dehqonobod kaliy zavodi” AJ model qurilmalarida sinovdan o‘tkazilganligi bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, Dehqonobod koni dolomitidan import o‘rnini bosa oladigan kimyoviy mahsulotlar - magniyli birikmalar- $Mg(OH)_2$, $Mg(NO_3)_2$, $MgSO_4$, $MgCl_2$ va K_2SO_4 tuzlari va qurilish gipsi olish hamda suyuq va donodor azot-kalsiyli va magniyli o‘g‘itlar olishning ilmiy asoslari aniqlangan. Dolomitni nitrat kislotali ishtirokida parchalab olingan eritmasini gazsimon ammiak bilan neytrallab magniy gidroksid olish hamda magniy sulfat eritmasi va kaliy xlorid tuzlarini koversiya qilib kaliy sulfati olishning ilmiy asosi yaratilganligi bilan izoxlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Dehqonobod koni dolomit xomashyosidan magniyli birikmalar - $Mg(OH)_2$, $Mg(NO_3)_2$, $MgSO_4$, $MgCl_2$ va K_2SO_4 tuzi, qurilish gipsi olish va aylanma eritmani suyuq va donodorlangan

o'g'itlarga qayta ishlash texnologiyasini ishlab chiqish, dolomit xomashyosini kompleks qayta ishlash asosida mamlakat ehtiyojlari uchun magniy birikmalari hamda sho'rlangan tuproqlarga samarali bo'lgan suyuq va donador azot-kalsiyli va magniyli o'g'itlar ishlab chiqarishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: Dehqonobod koni dolomitini mineral kislotalar bilan kompleks qayta ishlab magniyli birikmalar, K_2SO_4 tuzi, qurilish gipsi, albaster va hosil bo'lgan aylanma eritmadan suyuq azot-kalsiyli va azot-kalsiy-magniyli hamda donodor azot-kalsiyli o'g'itlar olish texnologiyasi ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

dolomit xomashyosini nitrat kislotasi ishtirokida kompleks qayta ishlab magniy gidroksidi hamda suyuq va donodor azot-kalsiyli va magniyli o'g'itlar olish texnologiyasi "Dehqonobod kaliy zavodi" AJning 2024-2030 yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxatiga kiritilgan ("Dehqonobod kaliy zavodi" AJning 2024 yil 26 iyuldagi 02-1/3450-sonli ma'lumotnomasi). Natijada dolomitlarni kompleks qayta ishlab tarkibida magniy gidroksidi va magniy nitratining miqdorlari 98,2% dan kam bo'lmagan mahsulotlarni olish imkonini beradi;

dolomitni sulfat kislotasi ishtirokida kompleks qayta ishlab magniy sulfat tuzi va kimyoviy cho'ktirilgan gips, shuningdek magniy sulfat eritmasini kaliy xloridi ishtirokida konversiya qilib kaliy sulfat va magniy xlorid olish jarayonlari texnologiyasi "Dehqonobod kaliy zavodi" AJning 2024-2030 yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxatiga kiritilgan ("Dehqonobod kaliy zavodi" AJning 2024 yil 26 iyuldagi 02-1/3450-sonli ma'lumotnomasi). Natijada qishloq xo'jaligidagi va qurilish sohasida $MgSO_4$, $MgCl_2$ va K_2SO_4 tuzlari hamda qurilish gipsi olish imkonini beradi;

dolomitni nitrat - sulfat hamda xlorid - sulfat kislotalari ishtirokida bosqichma-bosqich kompleks qayta ishlab magniy nitrat eritmasi, magniy xlorid va kimyoviy cho'ktirilgan gipsini olish "Dehqonobod kaliy zavodi" AJning 2024-2030 yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxatiga kiritilgan ("Dehqonobod kaliy zavodi" AJning 2024 yil 26 iyuldagi 02-1/3450-sonli ma'lumotnomasi). Natijada qishloq xo'jaligidagi sho'r erlarni uchun samarali magniy nitrat, magniy sulfat o'g'itlari, defoliant va qurulush gipsi olish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi: Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 17 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi: Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 34 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola, jumladan, 6 tasi Respublika va 7 tasi xorijiy jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi: Dissertatsiya tarkibi kirish, oltita bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 200 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, natijalarning ishonchliligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etish istiqboli bo'yicha xulosa qilingan, chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Adabiyotlar sharhi. Dolomitni mineral kislotalar bilan kompleks qayta ishlash sohasining zamonaviy holati**» nomli **birinchi bobida** adabiyotlar sharhi keltirilgan bo'lib, dolomit xomashyo resurslarining tavsifi, xomashyo manbalarining hozirgi holati va kelajagi hamda uni mineral kislotalar bilan qayta ishlash usullari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Magniy birikmalari va suyuq azot kalsiyli va magniyli o'g'itlarining olinish imkoniyatlari asoslangan ilmiy – texnik va patent adabiyotlari, fizik-kimyoviy sistemalar tadqiqi amalga oshirilgan. Magniy oksidi, magniy gidroksidi va suyuq va donadorlangan azot kalsiyli va magniyli o'g'itlar olishga bag'ishlangan ilmiy to'plamlar, patent materiallari tahlil qilingan.

Chop qilingan ishlarni tahlil qilish natijalariga asoslanib tadqiqotning maqsadi va vazifalari belgilab olingan.

Dissertatsiyaning «**Dolomitni azot kislotasi bilan parchalash jarayoniga texnologik parametrlarning ta'sirini o'rganish**» nomli **ikkinchi bobida** Dehqonobod koni dolomitini nitrat kislotasi bilan parchalashning maqbul texnologik parametrlarni aniqlash bo'yicha natijalar keltirilgan. Tadqiq qilish uchun Dehqonobod hududidagi dolomit konidan ikki xil tarkibga ega bo'lgan namuna olingan (mass. %): CaO – 37,55; MgO – 13,57; CO₂ – 44,43; e.q. – 0,56 va CaO – 33,06; MgO – 16,82; CO₂ – 45,20; e.q. – 0,65.

Dehqonobod koni dolomitining tarkibida uglerod oksidi miqdori ko'p bo'lganligi sababli parchalanish jarayonining davomiyligi va ko'pik hosil bo'lish jarayonida aralashtirgichlarning aylanish tezligi ta'siri o'rganildi. Tadqiqotlar 25 °C haroratda, mexanik aralashtirgich bilan jihozlangan tsilindrsimon shisha reaktorda 40 % li nitrat kislotasi bilan (dolomitni nitrat kislotasi bilan parchalashdagi meyyori 100 %) olib borilgan.

Shuningdek, ko'piklanish karraligi ko'pik hajmini (V_k) suyuqlik hajmi (V_c) nisbati bilan qo'yidagi formula asosida aniqlangan.

$$K_n = \frac{V_k}{V_c} = \frac{(V_r + V_c)}{V_c}$$

Bu yerda V_r – ko'pikdagi gazning hajmi.

Aralashtirgichning tezligi 750 ayl/min. – dan 1000 ayl/min. – gacha oshirilganda ko'piklanish karraligi tezda kamayadi, maksimal karraligi esa 15-25 sekunddan keyin ko'zatiladi. Aralashtirgichlarning aylanishlar tezligi oshgan sari ko'piklanish karraligi maksimal darajada 1,269 martaga kamaytiradi, vaqt esa 10 sekund sarflanadi. Bunda ko'pikning barqarorligi 60 sekunddan oshmaydi. Ko'pik

hosil bo'lishini kamaytirishning nisbatan samarali usullaridan biritserkuliotsion (30-50 %) quyqa tarkibiga dolomit kiritiladi, u nitrat kislota ta'sirida parchalanadi. Bu esa ko'piklanish karraligini 1,3-2,0 gacha kamaytiradi va texnologik jarayonning murakkablashmasligini va meyyorida ishlashini ta'minlaydi.

Dehqonobod koni dolomitini 100 % stexiometrik meyorda konsentratsiyasi 40, 50 va 57 % li nitrat kislotasi bilan parchalash jarayonining kinetik ko'rsatkichlarini aniqlash uchun jarayon davomiyligi va haroratini ta'siri o'rganilgan. Olib borilgan tajribalar 10, 20, 30, 40 va 50 °C haroratlarda ushlab turildi. Dolomitning parchalanish darajasi suyuq fazadagi kalsiy va magniy oksidlarining miqdorlari orqali aniqlangan.

Olingan natijalar asosida reaksiya tezlik konstantasi va dolomitni nitrat kislotasi bilan parchalash jarayonining aktivlanish energiyasi hisoblangan. Parchalanish reaksiya tezlik konstantasi haroratga bog'liq ravishda S. Arrenius tenglamasiga bo'ysinadi va quyidagi emperik tenglama orqali ifodalanadi: nitrat kislota konsentratsiyasi 40 % bo'lganda

$$K = 29,50 \cdot e^{\frac{938,2}{T}}; \quad 50 \% - K = 32,13 \cdot e^{\frac{1025,8}{T}} \quad \text{ba} \quad 57 \% - K = 33,94 \cdot e^{\frac{1201,3}{T}}.$$

Dehqonobod koni dolomitini 40 °C harorat va 30 minut davomida 40 % li nitrat kislota bilan parchalash jarayoni tadqiq etildi. 1-jadvalda Dehqonobod koni dolomitini parchalashda nitrat kislota meyorining suyuq fazani kimyoviy tarkibiga ta'siri natijalari keltirilgan.

1-jadval

40 % li nitrat kislota meyorlarining suyuq faza kimyoviy takibiga ta'siri

№	Meyori, %	Suyuq fazaning kimyoviy tarkibi, mass. %					S:Q
		CaO	MgO	Fe ₂ O ₃	Al ₂ O ₃	NO ₃ ⁻	
1	100	9,80	3,59	0,021	0,073	33,70	233,55
2	105	9,40	3,44	0,021	0,071	33,94	243,56
3	110	9,03	3,31	0,020	0,069	34,16	253,56
4	120	8,37	3,07	0,019	0,065	34,52	273,57
5	130	7,80	2,86	0,018	0,061	34,85	293,58
6	140	7,30	2,68	0,017	0,057	35,13	313,59
7	150	6,87	2,52	0,018	0,054	35,36	333,60

Jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, nitrat kislota meyorining oshishi natijasida eritma tarkibidagi dolomit komponentlarining miqdorlari ham kamayadi: NO₃⁻ miqdori 33,70 % dan 35,36 % gacha oshadi, Q:S esa 333,60 gacha yetadi. Magniy oksidining maksimal 3,59 % miqdori 40 % li nitrat kislotasining 100 % meyorida kuzatiladi. Bunda kalsiy oksidining miqdori 9,80 % ni, temir oksidi 0,021 % ni, alyuminiy oksidi esa 0,073 % ni tashkil etadi.

Qattiq fazaning asosiy komponentlarini Ca, Mg, Fe va Al birikmalari tashkil etadi. Magniy oksidining miqdori 1,719-0,181 %, kalsiy oksidi miqdori 38,05-40,80 %. Yaxshi eruvchanlikka ega bo'lgan magniy, kalsiy, temir va alyuminiy birikmalari nitrat kislotasida yomon eriydi. Texnologik jarayonda 40 °C haroratda, nitrat kislota konsentratsiyasi 40 % bo'lganda, 30 minutlik vaqt davomiyligi va 100 % stexiometrik meyorida parchalanish jarayoning maqbul sharoitiga

erishilgan.

Ushbu parametrlarda magniy oksidini ajralish darajasi juda yuqori bo'lib, nitrat kislota meyorini 100 % dan yuqori bo'lganda unga bog'liq bo'lmaydi va 99,81-99,98 % ni tashkil etadi. Kalsiy oksidini o'tish darajasi 98,37-98,48, temir oksidlari 38,30-46,60 %, alyuminiy oksidlari 75,00-79,38 % bo'lib, bu nitrat kislota eritmasi tarkibidan magniyni ajratib olish uchun 100 % stexiometrik meyor yetarlidir.

Dehqonobod dolomitini 40 % li nitrat kislota bilan parchalashdagi harorat va jarayon davomiyligini suyuq faza tarkibiga ta'siri 110 % li stexiometrik meyorda o'rganilgan. Olingan tadqiqot natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Dolomitni 110 % stexiometrik meyorda 40 % li nitrat kislotasi bilan parchalash jarayonidagi harorat va jarayon davomiyligining suyuq faza tarkibiga ta'siri

№	Harorat, °C	Vaqt, мин	Суюқ фазанинг кимёвий таркиби, масс. %					
			CaO	MgO	Fe ₂ O ₃	Al ₂ O ₃	NO ₃	C:K
1	20	10	8,76	3,31	0,011	0,069	34,16	253,56
2	20	20	8,87	3,31	0,014	0,071	34,16	252,91
3	20	30	8,96	3,31	0,017	0,075	34,16	252,42
4	20	40	9,02	3,31	0,021	0,081	34,16	252,04
5	20	60	9,07	3,31	0,028	0,092	34,16	251,66
6	40	10	8,86	3,31	0,016	0,073	34,16	252,96
7	40	20	8,95	3,31	0,018	0,074	34,16	252,47
8	40	30	9,03	3,31	0,021	0,07	34,16	252,04
9	40	40	9,09	3,31	0,024	0,073	34,16	251,66
10	40	60	9,13	3,32	0,030	0,082	34,16	251,33
11	60	10	8,90	3,31	0,016	0,065	34,16	252,80
12	60	20	9,03	3,31	0,018	0,065	34,16	252,09
13	60	30	9,09	3,31	0,021	0,069	34,16	251,71
14	60	40	9,12	3,32	0,024	0,074	34,16	251,44
15	60	60	9,14	3,32	0,030	0,082	34,16	251,28

Jarayon davomiyligi va haroratlarning magniyni ajralish darajasiga amaliy jihatdan salbiy ta'sir etmaydi. Jarayon davomiyligi kalsiyni ajralish darajasiga esa juda kam ta'sir etadi. 20 °C haroratda jarayon davomiyligini 10 dan 60 minutgacha ortishi ajralish darajasini 3,28 % gacha oshiradi, 40 °C haroratda 2,94 % gacha, 60 °C haroratda esa 2,64 % gacha ortadi. Jarayon davomiyligining sezilarli darajadagi ta'siri eritma tarkibidan temir va alyuminiy birikmalarini ajratishda kuzatiladi.

Dolomitni stexiometrik meyorini 110 %, jarayon davomiyligi 30 minut bo'lganda 40 % li nitrat kislotasi bilan parchalashdagi haroratini 20 dan 60 °C gacha o'zgarishi suyuq fazaning kimyoviy tarkibiga ta'sir qilmaydi. Parchalash jarayonidagi haroratning qancha bo'lishidan qat'iy nazar magniy oksid miqdori 3,31 % ni tashkil qiladi.

Qattiq fazaning kimyoviy tarkibi harorat o'zgarishi bilan 40 % li nitrat kislota bilan parchalashda stexiometrik meyorini 110 % va jarayon davomiyligi 30 minut bo'lganda asosiy komponentlar miqdorini kamayishiga olib keladi. Magniy, temir,

alyuminiy oksidlarining miqdori mos ravishda 0,226 %, 1,09 % va 0,80 % ga kamayadi, unda kalsiy oksidi miqdori esa 45,72 % dan 25,50 % gacha kamayadi.

Suyuq va qattiq fazalarning ajralish bosqichi fosforitlarni va boshqa kalsiy saqlovchi minerallarni nitrat kislotasi bilan parchalashda limitlovchi bosqichi hisoblanadi. Shuning uchun tadqiqotlarning navbatdagi bosqichlarida dolomitni nitrat kislotasi bilan parchalash natijasida olingan mahsulotlarni ajratish jarayonlari tindirish, cho'ktirish va filtrlash yo'li bilan o'rganilgan.

Tadqiqotlarda dolomit tarkibidagi parchalanmay qolgan yirik bo'lmagan qism bo'lakchalari tezda cho'kib qolishi va 3 minutdan so'ng cho'kish darajasi 100 % ga yetganligi aniqlandi. 100 sekund davomida cho'kish darajasi 98 % ga yetadi.

40 % li nitrat kislota bilan dolomitni parchalashda hosil bo'lgan suspenziyaning mayda zarrachalari dolomitning yirik zarrachalaridan farq qiladi va sekin cho'kadi hamda 120 minutdan keyin tinish darajasi 86,83 % gacha yetadi.

Suyuq va qattiq fazalarni bir-biridan ajralish jarayonini tezlashtirish uchun harorat va 40 % li nitrat kislotasi bilan dolomitni parchalashdan hosil bo'lgan mahsulotlarini filtrlanish tezligiga ta'siri o'rganilgan (3-jadval).

3-jadval

Parchalashdan keyingi filtrlash tezligiga texnologik parametrlarni ta'siri (suv nasosi, vakuum 300 mm. sim. ust.)

№	HNO ₃ Meyori	Harorat, °C	Filtrlanish tezligi, kg/m ² ·s		
			Quyqa bo'yicha	Qattiq faza bo'yicha	Filtratbo'yicha
R = 0 mm					
1	100	20	770,75	3,79	766,96
		40	1107,88	5,44	1102,44
		60	1190,79	5,85	1184,94
3	110	20	820,42	3,73	816,69
		40	1179,30	5,36	1173,94
		60	1267,52	5,77	1261,75
R = 0,1 mm					
4	100	20	184,42	0,91	183,51
		40	300,56	1,48	299,08
		60	349,57	1,72	347,85
6	110	20	191,82	0,87	190,95
		40	319,93	1,46	318,47
		60	372,10	1,69	370,41

Quyqaning harorati 20 dan 60 °C gacha oshirilganda quyqani filtrlanish tezligi, filtrat va nam holdagi qattiq fazaning miqdori oshadi. Bunda quyqa bo'yicha filtrlanish tezligi 20 °C haroratda 770,75 kg/m²·s dan 60 °C haroratda 1190,79 kg/m²·s gacha ortadi.


Nitrat kislotasi meyorining 100 % dan 110 % gacha oshishi filtrlash tezligini kam miqdorda oshiradi. Shunday qilib, 60 °C haroratda suyuq faza bo'yicha filtrlash tezligi stexiometrik meyor 105 % bo'lganda 1184,94 kg/m²·s dan meyor 110 % bo'lganda esa 1261,75 kg/m²·s gacha ortadi.

Uchunchi bobning «Azot kislotasi ekstraktini magniyli birikmalar, suyuq va donadorlangan oddiy va murakkab o'g'itlarga kompleks qayta ishlah jarayonini tadqiqoti» qismida dolomitni parchalashda xosil bo'lgan tindirilgan

nitrat kislotali eritmalarni ammiak bilan neytrallash, magniy gidroksidini ajratish hamda aylanma eritmalarni suyuq va donodor azot-kalsiyli o'g'itlarga qayta ishlash bo'yicha olingan ilmiy tadqiqot natijalari keltirilgan.

Qo'yida keltirilgan 1-rasmdan ko'rishimiz mumkinki, eritmani pH ko'rsatkich 7,5-8 gacha gazsimon ammiak bilan neytrallaganda magniysizlantirish darajasi 3-7 % dan oshmaydi. Eritmani yanada neytrallab pH ko'rsatkichi 10 ga yetganda 85-87,5 %, pH 10,5-11,0 ga yetganda esa 96,52-97,22 % magniy gidroksidi cho'kadi.

Nitrat kislotasi meyorini oshirish bilan eritma va quruq qoldiq - magniy gidroksidi bo'yicha filtrlash



tezligi ham ortadi hamda nitrat kislota meyori 100 % bo'lganda uning qiymati 890,21 va 181,80 kg/m²·s ga teng bo'ladi. Quyqaning harorati oshishi bilan filtrlash tezligi ham ortadi, bu esa quyqaning qovushqoqligini pasayishi bilan tushuntiriladi.

Shunday qilib, filtrlash tezligi nuqtai nazaridan ajratish jarayoni nisbatan yuqori haroratda olib borish kerak bo'ladi. Optimal harorat

1-rasm. Magniyni cho'kish darajasiga pH ni ta'siri: 1 - nitrat kislota meyori 100, 2 – 110 %.

esa 50-60 °C ni tashkil etadi. Quyqaning qovushqoqligi yuqoriligi sababli magniy gidroksidini tindirish yo'li bilan ajratib olish jarayoni o'rganilmagan.

Fazalarni ajratishda sentrifugalash jarayonining yuqori darajada jadalligi tufayli sentrifugalash vaqtini quyqaning S:Q nisbatlariga ta'siri o'rganilgan. Sentrifugalash orqali fazalarni bir-biridan ajratish jarayoni yetarli darajada tez boradi. Nisbatan jadal sentrifugalash jarayoni birinchi 6 minutda sodir bo'ladi. Shuning uchun 6 minutdan keyingi quyqa miqdori 91,86 % ni, 10 minutdan keyin 95,66 % va 15 minutdan keyin esa 97,15 % ni tashkil etadi.

Shunday qilib, olib borilgan tadqiqot ishlaridan aniqlandiki, filtrlash va sentrifugalash jarayonlari magniy gidroksidi cho'kmalarini ajratishning eng maqbul usullaridan biri hisoblanadi. Maqbul texnologik parametrlarda olingan magniy gidroksidining og'irligi o'zgarmay qolguncha 100-110 °C haroratda quritilgan hamda u rentgenogramma va termogramma usulida tahlili qilingan.

Magniy gidroksidini kuydirish haroratini aniqlab olish uchun uning derivatogrammasi olingan. Chunki magniy gidroksidini olish uchun uni 410 °C dan kam bo'lmagan haroratda kuydirish talab etiladi. Jarayonning boshlanishi 315,3 °C, tugashi 410 °C, namni maksimal darajada yo'qotilishi minutiga 3 % ni tashkil etadi. Belgilangan parchalanish tezligida 30,875 % namlikni yo'qotish uchun 11 minutdan kam bo'lmagan vaqt sarflandi.

Rentgenogrammada magniy gidroksid uchun xarakterli bo'lgan 2,36919, 4,79496, 1,57409, 1,79675, 1,49502Å difraksion maksimumlar ko'zatilgan.

Magniy gidroksidini olish bo'yicha qilingan tadqiqotlar 400-800 °C haroratda va jarayonning davomiyligi 15 minutdan 180 minutgacha bo'lgan vaqtni tashkil etgan. Kuydirishni 1 soat davomida 400 °C dan 800 °C gacha bo'lgan harorat oralig'ida magniy oksidi miqdori 56,62 % gacha, magniy gidroksid miqdori esa 800 °C haroratda 93,10 % gacha ortishi ko'zatilgan. 500 °C haroratda kuydirish jarayoni vaqtini oshishi magniy oksidi miqdorini 1 soat davomida 82,86 % gacha va 3 soat davomida esa 84,60 % gacha oshiradi. Magniy oksidi olishning maqbul sharoiti kuydirish vaqti 2 soatdan kam bo'lmagan va 700-800 °C harorat hisoblanadi.

Nitrat kislota bilan dolomitni parchalash bo'yicha olingan natijalar erimaydigan cho'kmalarni ajratish, tindirilgan eritmani gazzimon ammiak bilan neytrallab pH ni 10,5-11 gacha keltirish, cho'ktirish va cho'kkan cho'kmalarni ajratish bo'yicha olingan ilmiy tadqiqotlar Dehqonobod koni dolomitidan magniy gidroksid olish texnologiyasini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Magniy gidroksidini olish texnologiyasi quyidagi bosqichlardan iborat: dolomitni nitrat kislotasi bilan parchalash; erimaydigan cho'kmalarni filtrlab ajratib olish; tindirilgan eritmani gaz holatdagi ammiak bilan neytrallash; magniy gidroksidini ajratish, yuvish va quritish jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Magniy gidroksidi ajratib olingan eritmaning tarkibida ammoniy va kalsiy nitratlari hamda 0,50 % gacha magniy oksidi hisobida magniy nitrat bo'lgan aylanma eritma hosil bo'ladi. Bu eritmalar tarkibida 13,59-15,40 % umumiy azot bo'lib, ularni ham suyuq azot-kalsiyli o'g'it sifatida ishlatish mumkin.

4-jadvalda pH 10,5-11 bo'lgan va 40 % nitrat kislota meyoriga bog'liq bo'lgan suyuq fazaning magniy gidroksid ajratib olingandan keyingi kimyoviy tarkibi haqidagi ma'lumotlari keltirilgan.

4-jadval

HNO₃ stexiometrik meyorlarini Mg(OH)₂ ajratib olingandan keyingi pH 10,5-11 gacha ammoniylangan suyuq fazaning kimyoviy tarkibiga ta'siri

Kislota Meyyori %	Suyuq fazaning kimyoviy tarkibi, mass. %					
	CaO	MgO	Al ₂ O ₃	N _{NH3}	N _{NO3}	N _{YM}
100	7,49	0,00	0,080	8,14	7,26	15,40
105	7,19	0,00	0,079	8,03	7,24	15,27
110	6,87	0,00	0,079	7,91	7,19	15,10
115	6,53	0,05	0,079	7,76	7,11	14,87
120	6,21	0,24	0,076	7,66	7,05	14,71
125	5,88	0,37	0,073	7,54	6,96	14,50
130	5,58	0,45	0,069	7,42	6,88	14,30
135	5,36	0,50	0,065	7,32	6,83	14,16
140	5,15	0,50	0,062	7,22	6,78	14,00
145	4,95	0,48	0,059	7,12	6,72	13,84
150	4,70	0,43	0,056	6,99	6,60	13,59

Nitrat kislota meyori 100-110 % bo'lgan suyuq fazada magniy bo'lmaydi. Kislota meyori 115 % dan 130 % gacha oshirilsa magniy oksid miqdori ham 0,05% dan 0,45 % gacha oshadi va keyinchalik taxminan bir xil 0,48-0,50 %

darajaga kelib qoladi. Bu eritmada ammoniy nitrat miqdorining ortishi bilan magniy gidroksidi eruvchanligining nisbatan oshishiga olib keladi.

Magniy gidroksid olishda hosil bo'lgan aylanma eritmalar tarkibida azot miqdori kamligi transport xarajatlarini oshishiga olib kelishi sababli, ularni to'g'ridan-to'g'ri suyuq azot-kalsiyli o'g'itlar sifatida qo'llash iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emas. O'g'itlar tarkibidagi azot miqdorini oshirish maqsadida ammoniy nitrat qo'shib suyuq NCaMg -o'g'itlar olish bo'yicha ilmiy tadqiqot tajribalari olib borildi. Qo'shilayotgan ammiakli selitra miqdorining oshishi bilan kalsiy, magniy nitratlarining miqdori ma'lum qonuniyat bo'yicha kamaydi va ammiakli selitra miqdori ortadi.

Shunday qilib, nitrat kislotali ajratilgan eritmalarini chuqur neytrallamagan holda ($\text{pH} = 7,5-8,0$) va ammoniy nitrat qo'shish yo'li bilan tarkibida 18,61 % gacha N, miqdori 4,17 % dan kam bo'lmagan CaO va MgO 1,34 % dan kam bo'lmagan suyuq azot-kalsiy-magniyli o'g'itlar olish mumkin.

Shuning uchun ham keyingi olib borilgan tadqiqotlar ammiakli selitraga qo'shimcha sifatida qo'shiladigan va ko'plab miqdorda ishlab chiqariladigan eritmalardan foydalanishga yo'naltirilgan. Dolomitni nitrat kislotasi bilan parchalash orqali olingan ammoniyashtirilgan azot-kalsiyli va azot-kalsiy-magniyli eritmalarini ammiakli selitra tarkibiga kiritish yo'li bilan ammiak-kalsiyli selitra olish mumkin. Ammiakli selitraga qo'shimcha sifatida dolomitni stexiometrik meyorda parchalab va tindirilib olingan, hamda $\text{pH}=8$ gacha neytrallangan, tarkibida 12,32 % magniy nitrat, 18,33 % kalsiy nitrat va 14,22 % ammoniy nitrat bo'lgan eritmalar qo'llanilgan. Magniy gidroksidi ajratilgandan sung olingan, tarkibida magniy nitrat miqdori 0,63 %, kalsiy nitrat 17,84 % va ammoniy nitrat 26,67 %, $\text{pH}=11$ ni tashkil etgan eritmalar ham ishlatildi.

Ammiak-kalsiyli selitra tarkibini aniqlab olish uchun ammiakli selitra eritmasi va dolomitni parchalanish mahsulotlarini aralashtirib AKS namunalari olingan. $\text{pH}=8$ bo'lgan eritma ammiakli selitra:qo'shimcha 1:0,2 dan 1:1 gacha bo'lgan nisbatlarda kiritildi. Buning natijasida umumiy azot miqdori 34,0 % dan 31,32 % gacha kamaydi, nitratli azot miqdori 17,50-17,55 %, ammoniyli azot miqdori 16,50-13,78 %, kalsiy oksidi miqdori 1,15-4,32 % gacha o'zgaradi. Tarkibida magniy saqlovchi qo'shimchalar kiritilganda magniy oksidi miqdori 0,62-3,31 % ni tashkil etdi.


$\text{pH}=11$ bo'lgan eritmalar tarkibiga 1:0,2 dan 1:1 nisbatlarda qo'shimchalar kiritilganda nitratli azot miqdori 17,51 % dan 17,44 % gacha kamayadi, ammoniyli azot miqdori 16,93 % dan 15,26 % gacha kamayadi, umumiy azot 34,44 % dan 32,70 % gacha kamayadi, kalsiy oksidi miqdori esa 1,12 % dan 4,20% gacha ortadi.

2-rasmda dolomitdan magniy gidroksidi, suyuq azot-kalsiy-magniyli (SAKMO') va azot kalsiyli o'g'itlar (SAKO'), hamda donodor kalsiy nitrat va ammiak-kalsiyli selitrasi (AKS) olishning prinsipial texnologik sxemasi keltirilgan.

Olib borilgan tadqiqotlar pH 7-8 da dolomitni parchalanishida hosil bo'lgan ammonizatsiyalangan eritmalardan donodor kalsiy nitrat olingan.

Olib borilgan texnik-iqtisodiy hisoblar Dehqonobod koni dolomitini kompleks qayta ishlab magniy gidroksid va suyuq azot-kalsiyli o'g'itlar ishlab

chiqarish yuqori iqtisodiy samara berishidan dalolat beradi. Dolomitni kompleks qayta ishlab yiliga 10 ming tonna magniy gidroksidi va suyuq azot-kalsiyli o'g'itlar (172 ming tonna suyuq o'g'it) olinganda umumiy iqtisodiy samadorlik 39,78 mlrd. so'mni tashkil etadi. Bunda magniy gidroksidining ulgurji narxi bir tonna uchun 100 AQSH dollarini tashkil qiladi.



2-rasm. Dolomitni qayta ishlashning asosiy moslashuvchan, integratsiyalashgan texnologik sxemasi: 1 – bunker; 2 – dispenser; 3, 5 va 7 – reaktor; 4, 6 – filtrlar; 8 – bug'latgich; 9 – meshalka; 10 - gran minora, 11 - BDQ.

Dissertatsiyaning «Dolomitni sulfat kislotasi bilan parchalab, kalsiy, magniy, kaliy sulfatlar va magniy xloridga qayta ishlash jarayonining tadqiqoti» nomli to'rtinchi bobida mahalliy dolomit xomashyosini konsentratsiyasi 20, 30 va 40 % hamda meyyorlari 100, 105 va 110 % li H_2SO_4 bilan 50 °C harorat va 40 daqiqa vaqt davomida kompleks qayta ishlab magniyli birikmalar- $MgSO_4$, $MgCl_2$ va K_2SO_4 tuzlari hamda qurilish gipsi olish, bir vaqtning o'zida suyuq va donodor azot-kalsiyli va magniyli o'g'itlar olishning kompleks, ilmiy asoslangan va samarali texnologiyasi o'rnatilgan hamda $MgSO_4 \cdot 4H_2O$ eritmasi va flatatsion KCl laridan konversiya usulida kaliy sulfat o'g'itlarini olishning maqbul sharoitlari, optimal texnologik parametrlari hamda ishlab chiqarishning prinsepial texnologik sxemasi va material blans hisoblari o'rnatilgan.

Shuningdek sirt passiv modda (SPM) ("PAA-gel va Struktol SB 2195") larning ko'pik karraligi va fil'trlanish tezligiga ta'siri, kislota konsentratsiyasi va haroratlarning kislotali bo'tqani qattiq va suyuq fazalarga ajratish jarayoniga hamda bo'tqa va suyuq fazaning reologik hossalari ta'sirlari aniqlangan. Natijada fil'trlanish tezligining oshishi va ko'piklanish tezligi (ko'pik karraligi) ning kamayishiga erishilgan.

Dehqonobod koni dolomit xomashyosini konsentratsiyasi 20, 30 va 40 % – li H_2SO_4 bilan parjalashdan hosil bo'lgan bo'tqani filtrlash orqali ajratilgan suyuq va

qattiq fazalarning kimyoviy tarkiblari tahlil qilingan va optimal sharoitlari aniqlandi (5 va 6-jadvallar).

Olingan natijalardan xulosa qilish mumkinki, dolomit tarkibidagi komponentlardan MgO miqdorining suyuq fazaga ajralish darajasi 98 % dan kam bo‘lmagan maqbul sharoit dolomitni sulfat kislotasining konsentratsiyasi 35-40 %, meyyori 110 %, parchalash jarayoni vaqti 40 minut va harorati 55 °C ekanligi aniqlandi va laboratoriya sharoitda kimyoviy tahlillar orqali tasdiqlandi.

5 – Jadval

Dolomitni sulfat kislotasi bilan parchalab olingan suyuq fazaning kimyoviy tarkibi (t=50 °C, τ=40 min)

№	H ₂ SO ₄ меъёри.	H ₂ SO ₄ конц.	Suyuq fazaning kimyoviy va mineralogik tarkibi., massa. %						
			CaO	MgO	Fe ₂ O ₃	Al ₂ O ₃	SO ₄	CaSO ₄	MgSO ₄
1	100	20	0,13	3,20	0,044	0,072	11,00	0,32	9,61
2		30	0,18	4,21	0,056	0,096	14,03	0,43	12,63
3		40	0,26	5,97	0,079	0,135	19,33	1,68	17,90
4	105	20	0,14	3,29	0,045	0,074	11,32	0,33	9,88
5		30	0,19	4,34	0,058	0,099	14,52	0,44	13,00
6		40	0,27	6,16	0,081	0,140	19,90	1,17	18,42
7	110	20	0,14	3,38	0,046	0,076	11,63	0,34	10,15
8		30	0,19	4,45	0,060	0,101	14,84	0,46	13,36
9		40	0,27	6,31	0,082	0,143	20,46	0,66	18,93


Shuningdek, tajriba modeli qurilmasida Dehqonobod koni dolomit xomashyosini sul'fat kislotasi bilan parchalash jarayonidagi ko'piklanish jarayoniga (ko'pik balandligi, ko'pik karraligi (K_k), ko'pikni yashash davri) jarayon davomiyligi hamda PAA-gel, "Struktol SB-2195" moddalari miqdorining dolomit xomashyosiga nisbatan miqdoriy ta'sirlari aniqlangan. Bunda ko'piklanish jarayonini tavsiflovchi omil sifatida hosil bo'lgan K_k va mavjud bo'lish davri – "yashash" vaqti qabul qilingan. Ko'pikning balandligini hisoblashda o'lchamlarda belgilangan qiymatlar ko'rinishida, ko'pikning "yashash" vaqtini esa sekundometr qurilmasida o'lchangan. K_k ko'pik hajmi V_k uni hosil bo'lishiga sarflangan suyuqlik hajmi V_c – ga nisbatiga nisbatan aniqlangan (3, 4, 5 va 6-rasmlar).

6 – Jadval


Dolomitni sulfat kislotasi bilan parchalashdan olingan qattiq fazaning kimyoviy tarkibi (t=50 °C, τ=40 min)

№	H ₂ SO ₄ меъёри	H ₂ SO ₄ конц	Qattiq fazaning kimyoviy va mineralogik tarkibi., massa. %						
			CaO	MgO	Fe ₂ O ₃	Al ₂ O ₃	SO ₄	CaSO ₄	MgSO ₄
1	100	20	19,84	2,56	0,031	0,051	38,29	48,99	7,29
2		30	25,02	2,77	0,037	0,055	48,30	60,76	8,27
3		40	34,04	3,33	0,046	0,066	65,65	82,68	9,94
4	105	20	18,77	1,74	0,021	0,034	34,43	45,56	5,01
5		30	23,97	1,83	0,025	0,036	43,99	58,21	5,33
6		40	32,15	1,91	0,030	0,037	59,04	78,08	5,70
7	110	20	21,00	1,16	0,015	0,023	36,61	51,10	3,47
8		30	26,60	1,00	0,016	0,019	46,30	64,60	3,00
9		40	36,18	0,73	0,019	0,012	62,95	87,86	2,18


Dehqonobod koni dolomit xomashyosini konsentratsiyasi 20 va 40 %, meyorli 110 % - li H_2SO_4 bilan 50 °C haroratda va qattiq:suyuq faza q:s = 1:3,5 va 1,8 nisbatlarda parchalash jarayonida hosil bo'lgan ko'pik karraligiga sirt passiv moddalar ("PAA-gel" va "Struktol SB 2195") ning ta'siri o'rganilgan bo'lib, bunda fizik - kimyoviy tahlillar orqali olingan natijalar 3, 4, 5 va 6- rasmlarda keltirilgan. Bunda 90 daqiqa davomida dolomitni konsentratsiyasi 20 va 40 % li sulfat kislotasining 110 % meyyorida parchalash jarayonida hosil bo'lgan ko'pik karraligiga va balandligiga SPMning ta'sirlari aniqlangan.




3-rasm. Dolomitni 20 % li H_2SO_4 bilan qayta ishlash jarayonida hosil bo'ladigan ko'pik va ko'pik karraligiga 1 tonna dolomitga nisbatan 10, 20 va 30 g/t SPM ("PAA-gel")ning ta'sir darajalari diagrammasi



4-rasm. Dolomitni 20 % li H_2SO_4 bilan qayta ishlash jarayonida hosil bo'ladigan ko'pik va ko'pik karraligiga 1 tonna dolomitga nisbatan 10, 20 va 30 g/t SPM ("Struktol SB 2195")ning ta'sir darajasi diagrammasi



5-rasm. Dolomitni 40 % li H_2SO_4 bilan qayta ishlash jarayonida hosil bo'ladigan ko'pik va ko'pik karraligiga 1 tonna dolomitga nisbatan 10, 20 va 30 g/t SPM ("PAA-gel")ning ta'sir darajasi diagrammasi



6-rasm. Dolomitni 40 % li H_2SO_4 bilan qayta ishlash jarayonida hosil bo'ladigan ko'pik va ko'pik karraligiga 1 tonna dolomitga nisbatan 10, 20 va 30 g/t SPM "Struktol SB 2195" ning ta'sir darajasi diagrammasi

Shunday qilib, laboratoriya sharoitida tajriba modeli qurilmasida bajarilgan eksperiment tahlillari orqali olingan natijalardan aniqlandiki, Dehqonobod koni dolomit xomashyosini konsentratsiyasi 20 va 40 % li H_2SO_4 bilan parchalash jarayonidagi ko'pik karraligini va balandligini "PAA-gel va Struktol SB 2195" SPM ning 10 gr/tonnaga nisbatan solishtirganimizdagi ko'pik karraligi 1,00 va 1,06 martaga va 1,3 va 1,23 martagacha kamayganligi hamda 20 gr/tonnada 1,09 va 1,10 martaga hamda 1,41 martagacha kamayganligi, 30 gr/tonnada 1,09 va 1,04 martagacha kamayganligi texnologik parametrlar ta'sirlari va kimyoviy tahlillar asosida aniqlangan.


Tadqiqot natijalaridan ko'rinib turibdiki, kislota konsentratsiyasi oshishi bilan dolomitni parchalanish koeffitsienti ham oshgan va qattiq:suyuq fazalar nisbati

kamaygan, masalan: kislota me'yorlari 100 va 110 % da q:s nisbati 1:4,95 dan 2,48 gacha va 1:3,5 dan 1,8 gacha kamaygan, MgO + CaO larning umumiy miqdoriga nisbatdan harorat 10 - 70 °C gacha va 1 - 40 daqiqagacha vaqt davomiyligining parchalanish ko'effitsientiga ta'sirlari aniqlangan.


Bunda sulfat kislotasining 100-110 % meyyorlarida dolomit komponentlarining parchalanish ko'effitsienti 98,02 - 99,78 % ni tashkil qiladi, bu texnologiyaning optimal ko'rsatkichidir. Sulfat kislotasi meyyorining yanada oshishi kislota reagentining asossiz ortiqcha sarf qilinishiga olib keladi.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan ma'lumotlar va 7-rasmdagi digrammadan ko'rishimiz mukimki dolomitni sul'fat kislotasining 100 va 110 % me'yorida parchalab olingan bo'tqadagi yirik fraksiyaning cho'kish darajasiga kislota me'yori va vaqtning ta'sirlari aniqlangan bo'lib, bunda yirik fraksiyalar va erimaydigan qoldiqning cho'kish darajalari keltirilgan bo'lib, bunda kislota me'yori 100 % da 1-40 daqiqagacha bo'lgan vaqt ta'siridagi yirik fraksiyaning cho'kish darajasi 9,66 - 93,33 % gacha ortganligi va 110 % kislota me'yorida 10,06 - 97,22 foizgacha ortganligi aniqlandi.

Shuningdek, Dehqonobod koni dolomit xomashyosini sulfat kislotasining 110% me'yorida, 30 % konsentratsiyasida 40 minut davomida parchalab olingan nordon bo'tqani tinish darajasi ham aniqlangan (8-rasm). Bunda hajmi 100 sm³ li o'lchov belgisi mavjud bo'lgan menzurkaga metkasigacha nordon bo'tqa qo'yilgan va sekondomer orqali har soatda bo'tqaning tingan qismining balandligi cho'kkan qismining balandligiga nisbatan solishtirish orqali foiz miqdorlari aniqlangan.



7-rasm. Dolomitni sulfat kislotasi bilan parchalab olingan bo'tqadagi yirik fraksiyaning chukish darajasi. (NH₂SO₄ - 100 va 110 %; CH₂SO₄ - 30 %).



8-rasm. Dolomitni sulfat kislotasi bilan parchalab olingan bo'tqaning tinish darajasi. (NH₂SO₄ - 100 va 110 %; CH₂SO₄ - 30 %).

Dolomit xomashyosini sulfat kislotasi bilan qayta ishlashda kislota konsentratsiyasi 20, 30 va 40 %, meyyori 110 %, qattiq:suyuq fazalar nisbatlari 1:3,5, 1:2,8, 1:2,3, 1:2,0 va 1:1,8 hamda 50 °C haroratda parchalashdan hosil bo'lgan bo'tqaning fil'trlanish tezligiga sirt faol moddalar (PAA - gel va Struktol SB-2195) ning va kislota konsentratsiyalarining ta'sirlari aniqlangan. Dolomitni sul'fat kislotasi bilan qayta ishlashdan olingan nordon bo'tqani fil'trlashdagi texnologik parametrlar, 50 °C haroratda va 0,06 MPa bosimida yoki 450 mm.sm.st. - da, синяя лента-ТУ 2642-001-05015242-07 markali fil'tr qog'ozida fil'trlash jarayoniga 1 tonna dolomit xomashosiga nisbatan 10, 20 va 30 g/ton PAA - gel va Struktol SB-2195 sirt faol moddalarining ta'sirlari aniqlangan.

Shunday qilib, Dehqonobod koni dolomit xomashyosini kontsetratsiyasi 20 % li H₂SO₄ bilan parchalashda “PAA-gel” va “Struktol SB 2195” sirt faol moddalarining 10-30 gr/tonnaga nisbatan solishtirganimizdagi fil’trlanish tezligi bo‘tqa bo‘yicha 1,51 - 1,66 martaga va 1,55 - 1,58 martagacha ortganligi, 30 % li H₂SO₄ da fil’trlanish tezligi bo‘tqa bo‘yicha 1,24 - 1,72 martaga va 1,31 - 1,38 martagacha ortganligi va 40 % li H₂SO₄ da fil’trlanish tezligi bo‘tqa bo‘yicha 1,01 - 1,83 martaga va 1,10 - 1,21 martagacha ortganligi aniqlangan (7 – jadval).

7 – Jadval

Dolomitni sul’fat kislotasi bilan parchalashdan olingan bo‘tqaning, fil’trlanish tezligiga sirt faol moddalarning ta’siri (N=110%; t=50 °C va τ=40 min)

Konst. H ₂ SO ₄ %	Sirt faol modda, gr/tonna	Bo‘tqaning fil’trlanish tezligi, kg/m ² ·s (0,06 MPa)			
		Bo‘tqa bo‘yicha	Fil’trat (nordon suyuq faza) bo‘yicha	Qattiq faza bo‘yicha	CaO+MgO bo‘yicha
20	0	2025,50	1418,30	607,20	162,80
	PAA-gel				
	10	3066,40	2330,55	735,85	246,50
	20	3210,90	2440,38	770,52	258,10
	30	3355,40	2550,20	805,20	269,70
	“Struktol SB 2195”				
	10	3152,50	2404,80	747,70	253,40
	20	3173,25	2419,85	753,40	255,05
	30	3194,00	2434,90	759,10	256,70
	30	0	2184,00	1386,65	797,35
PAA-gel					
10		2712,00	1672,17	1039,83	276,89
20		3229,30	1917,72	1311,58	332,71
30		3746,60	2163,27	1583,33	388,52
“Struktol SB 2195”					
10		2861,96	1806,83	1055,13	292,15
20		2936,11	1844,34	1091,77	299,75
30		3010,25	1881,84	1128,41	307,34
40		0	2342,50	1355,00	987,50
	PAA-gel				
	10	2357,60	1013,80	1343,80	330,06
	20	3328,40	1452,73	1875,67	465,97
	30	4299,20	1891,65	2407,55	601,88
	“Struktol SB 2195”				
	10	2571,43	1208,87	1362,56	360,00
	20	2698,97	1268,83	1430,14	377,85
	30	2826,51	1328,78	1497,73	395,70

Tajriba modeli qurilmasida dolomit xomashyosini sulfat kislotasi bilan 100, 105, 110 % meyyorlarida parchalab olingan nordon bo‘tqani filtrlash orqali ajratilgan suyuq fazani bo‘g‘latish orqali olingan MgSO₄·4H₂O kristallallarining kimyoviy tarkibi 8- jadvalda keltirilgan.

Tajriba modeli qurilmasida dolomit xomashyosini sulfat kislotasining 105 % meyyorida va 30 % konsentratsiyalarida parchalab olingan nordon bo‘tqani

filtrlash orqali ajratilgan suyuq fazani bo'g'latish orqali olingan $MgSO_4 \cdot 4H_2O$ va KCl tuzlarining tuyingan eritmalarini konversiyalab olingan bo'tqani bug'latish va fil'trlash orqali ajratilgan kristall ko'rinishdagi ($K_2SO_4 + MgSO_4 \cdot 4H_2O$) qo'sh tuzini K_2SO_4 ning 15 % - li eritmasi bilan ikki bosqichda qattiq:suyuq fazalar (qattiq faza-qo'sh tuz va suyuq faza 15 % K_2SO_4 eritmasi) miqdoriga nisbatan 1:1,5 va 1:1,0 nisbatlarda yuvib 180 minut davomida 105-110 °C haroratda quritilgan kaliy sul'fat va qisman magniy sul'fatni o'zida tutgan kaliy sul'fat tuzning kimyoviy va tuz tarkiblari 8 - jadvalda keltirilgan.

8 – Jadval

Dolomitni sulfat kislotasi bilan parchalab olingan va kristallangan $MgSO_4 \cdot 2H_2O$ ning kimyoviy tuz tarkibi ($t=50\text{ }^\circ\text{C}$, $\tau=40\text{ min}$)

№	H_2SO_4 meъёри	H_2SO_4 конц.	Kristallangan $MgSO_4 \cdot 2H_2O$ ning kimyoviy va mineralogik tarkibi., massa. %						
			CaO	MgO	Fe_2O_3	Al_2O_3	SO_4	$CaSO_4$	$MgSO_4$
1	100	20	0,62	15,23	0,21	0,34	52,38	1,52	45,76
3		30	0,77	18,09	0,25	0,41	60,10	3,60	54,28
5		40	0,91	20,95	0,28	0,47	67,82	5,68	62,80
6	105	20	0,65	15,92	0,22	0,36	57,74	1,59	47,82
8		30	0,67	16,26	0,24	0,37	57,42	1,62	48,85
10		40	0,93	21,24	0,28	0,48	68,62	4,03	63,52
11	110	20	0,68	16,60	0,26	0,38	57,09	1,65	49,88
13		30	0,80	19,00	0,27	0,44	63,22	2,00	57,03
15		40	0,92	21,39	0,28	0,49	69,35	2,34	64,17

Labaratoriya sharoitidagi tajriba modeli qurilmasida olingan kristallshakildagi K_2SO_4 o'g'itining kimyoviy tarkiblari yuqoridagi jadvallarda keltirilgan natijalarga mos ravishda CaO ning umumiy shakli 0,071 dan 0,40 % gacha kamayishi, MgO ning umumiy shakli 2,97 dan 3,31 % gacha, SO_4 ning umumiy shakli 48,38 dan 49,86 % gacha, Cl ning umumiy shakli 0,90 dan 0,98 % gacha, Na ning umumiy shakli 0,024 dan 0,045 % gacha, $CaSO_4 \cdot 2H_2O$ ning umumiy shakli 0,21 dan 0,44% gacha, $MgSO_4 \cdot 4H_2O$ ning umumiy shakli 8,06 dan 8,94 % gacha va K_2SO_4 ning umumiy shakli 80,35 dan 83,32 % gacha., ortganligi kimyoviy tahlillar orqali aniqlangan (9 - jadval).

9 – Jadval


Dolomitni sulfat kislotasi bilan parchalab olingan $MgSO_4 \cdot 4H_2O$ eritma va KCl ishtirokida konversalab olingan kaliy sulfatning kimyoviy va tuz tarkibi

№	H_2SO_4 Meъyori	H_2SO_4 Konsent	$MgSO_4 \cdot 4H_2O$ eritmasi va KCl ishtirokida 1:1mol nisbatda konversalab olingan kaliy sulfatning kimyoviy va tuz tarkibi., %							
			CaO	MgO	SO_4	Cl	Na	$CaSO_4 \cdot 2H_2O$	$MgSO_4 \cdot 4H_2O$	K_2SO_4
1	100	30	0,071	2,97	48,38	0,90	0,024	0,21	8,06	80,35
2		35	0,064	3,21	44,85	0,93	0,041	0,21	8,77	81,10
3	105	30	0,047	3,04	49,12	0,93	0,024	0,43	8,24	81,53
4		35	0,043	2,83	49,28	0,95	0,043	0,38	7,67	82,38
5	110	30	0,047	3,15	49,22	0,99	0,024	0,43	8,52	81,60
6		35	0,040	3,31	49,86	0,98	0,045	0,44	8,94	83,32

Shunday qilib, tajriba modeli qurilmasida olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalarida to'rt suvli magniy sulfat eritmasini bo'g'latish orqali to'yintirilgan va uni KCl ning to'yingan eritmasi bilan konversiyalab olingan suspenziyadan 24 % suvni bug'latish orqali kamaytirilib va fil'rlash orqali qattiq va suyuq fazalarga ajratilgan. Ajratilgan qattiq faza ($K_2SO_4 + MgSO_4 \cdot 4H_2O$) tuzini K_2SO_4 ning 15 % - li eritmasi bilan ikki bosqichda yuvish va uni quritish orqali olingan kaliy sulfat o'g'itining optimal texnologik parametrlari hamda kimyoviy va tuz tarkiblari aniqlangan.

Dehqonobod koni dolomit xomashyosini mineral kislotalar bilan parchalab kaliy sul'fat o'g'itini olish uchun eng maqbul texnologik sharoit, dolomitni sulfat kislotasining konsentratsiyasi 30 % va kimyoviy reaksiya tengligi bo'yicha stexiometrik meyyori 105 % va parchlash vaqti 30-40 minutda olingan bo'tqani fil'rlash orqali ajratilgan suyuq faza ($MgSO_4 \cdot 4H_2O$ eritmasi) ni 1:1 mol nisbatda KCl ning to'yingan eritmasi bilan konversiyalangan va bo'g'latilgan suspenziyani fil'rlash orqali ajratib olingan qattiq faza (qo'sh tuz)ni K_2SO_4 ning 15 % li eritmasi bilan ikki bosqichli yuvish (qattiq:suyuq fazalar miqdoriga nisbatan birinchi bosqichda 1:1,5 va ikkinchi bosqichda 1:1,0 nisbatlarda yuvilgan) orqali kaliy sulfat maxsuloti namunasi olishning eng maqbul sharoiti ekanligi laboratoriya tajriba sinov tahlillari asosida aniqlangan.

Laboratoriya sharoitida tajriba modeli qurilmasida o'tkazilgan tadqiqotlar K_2SO_4 ishlab chiqarishni texnologik sxemasini ishlab chiqish uchun asos bo'ladi (9-rasm).



9-rasm. Dolomitni sulfat kislotasi bilan parchalab olingan $MgSO_4 \cdot 6H_2O$ eritmasini flatatsion KCl bilan konversiya qilib kaliy sulfati olishning prensipial texnologik sxemasi: 1-bunker; 2-shnek; 3-bak, 4-rasxodomer, 5, 9, 12, 14, 23-reaktorlar, 6, 10, 13, 15, 20-filtrlar; 7, 11, 17, 18, 22-sig'imli suyuqlik yig'gichlar, 8-nasos; 16, 21-barabanli quritgich; 19 - vakkumli- bug'latgich.

Shunday qilib, texnologiya uzluksiz, siklik va chiqindisiz hosil bo'lgan kristall shakildagi kaliy sulfat GOST 4145-74 talablariga javob beradi.

Shunday qilib, Dehqonobod koni dolomitni sulfat kislotasi bilan qayta ishlab K_2SO_4 o'g'iti, quritilgan bishofit ($MgCl_2 \cdot 6H_2O$) kristallari va alibasterlarga qayta ishlashning samaradorligi isbotlandi. Bunda har bir tonna kaliy sulfat olinganda 7710318 so'm yoki 611,93 \$ AQSh dollarigacha iqtisodiy samaradorlikka erishilgan.

Dissertatsiyaning «**Dolomitni sulfat va nitrat kislotalari bilan bosqichma-bosqich parchalab kalsiy sulfat va magniy nitratlariga qayta ishlash jarayonini tadqiqoti**» nomli beshinchi bobida import o'rnini bosuvchi qimmatli kimyoviy mahsulotlar - mahalliy dolomitni HNO_3 va H_2SO_4 bilan parchalash jarayonini jadallashtirish va uni gips ($CaSO_4 \cdot 2H_2O$), $Mg(NO_3)_2$, hamda suyuq va donadorlangan magniyli o'g'itlarini ishlab chiqarish uchun ilmiy asos yaratganligi bilan izohlanadi. "PAA-gel" va "Struktol SB 2195" SPM ning ko'pik karraligi va fil'trlanish tezligiga ta'siri, shuningdek kislotani konsentratsiyasi va haroratlarning kislotali bo'tqani qattiq va suyuq fazalarga ajratish hamda reologik hossalarga ta'sirlari aniqlangan. Natijada "PAA-gel va Struktol SB 2195" SPM ta'sirida fil'trlanish tezligining oshishi va ko'piklanish tezligining kamayishiga erishilgan. Tajriba modeli qurilmasida dolomitni HNO_3 va H_2SO_4 bilan parchalab olingan nordon bo'tqani filtrlab ajratilgan suyuq faza (filtrat)ni bo'g'latib va quritib olingan $Mg(NO_3)_2$ kristallallarining kimyoviy tarkibi 10-jadvalda keltirilgan.

10-Jadval

Gipsi ajratilgan filtratni bug'latib va quritib olingan $Mg(NO_3)_2$ kristallarining kimyoviy va tuz tarkibi ($t=50\text{ }^\circ\text{C}$ va $N=110\text{ \% min}$)


№	$H_2SO_4+HNO_3$		Kristallangan magniy nitratining kimyoviy va tuz tarkibi., massa. %							
	me-yori	конц	CaO	MgO	Fe ₂ O ₃	Al ₂ O ₃	SO ₄	NO ₃	CaSO ₄ ·2H ₂ O	Mg(NO ₃) ₂ ·2H ₂ O
1	100	20	0,90	19,93	0,20	0,36	1,29	62,15	1,74	90,97
2		30	0,96	20,03	0,24	0,38	1,39	62,55	1,87	91,51
3		40	1,02	20,12	0,28	0,42	1,49	62,94	2,00	92,04
4	105	20	0,89	20,07	0,23	0,40	1,31	62,79	1,82	91,84
5		30	0,95	20,21	0,25	0,42	1,40	63,20	1,89	92,42
6		40	1,01	20,34	0,27	0,46	1,48	63,60	1,96	93,01
7	110	20	1,01	20,34	0,28	0,42	1,48	63,60	1,96	93,01
8		30	1,06	20,45	0,31	0,46	1,53	63,90	2,03	93,51
9		40	1,09	20,55	0,34	0,48	1,58	64,20	2,10	94,01

Bunda dolomit xomashyosini konsentratsiyasi 20 – 40 % va me-yori 100, 105 va 110 % H_2SO_4 bilan 50 °C haroratda va 40 daqiqa vaqt davomida parchalash orqali olingan nordon bo'tqalardan ajratilgan suyuq fazalarni bug'latish va quritish orqali olingan $Mg(NO_3)_2$ kristallallarining kimyoviy tarkibi keltirilgan.

Shunday qilib, tajriba modeli qurilmasida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida magniy nitrat kristallarini olishning moslashuvchan texnologiyasi uchun tanlangan optimal sharoit bu dolomitni konsentratsiyasi 30 % va me-yori 105 % - li sulfat va nitrat kislotalari bilan bosqichma-bosqich parchalab olingan bo'tqadan

filtrlash orqali ajratilgan suyuq fazani bo'g'latish va quritish orqali olingan $Mg(NO_3)_2$ kristallari tanlangan. Magniy nitrat kristallaridagi suvlar soni quritish jarayoniga va undagi haroratga bog'liq bo'ladi.

Labaratoriya sharoitida tajriba modeli qurilmasida o'tkazilgan tadqiqotlar $Mg(NO_3)_2$ olishning texnologik sxemasini (10-rasm) ishlab chiqishga asos bo'lgan.




10-rasm. Dolomitni sulfat va nitrat kislotalari bilan parchalab kristallangan $Mg(NO_3)_2$ o'g'itini olishning prensipial texnologik sxemasi: 1, 5 – bak; 2, 6 – rasxodamer; 3- bunker; 4 – shnek; 7, 11 – reaktorlar; 8, 12 – filtrlar; 9, 13 - sig'imli suyuqlik yig'gichlar; 10 – nasos; 14 - barabanli quritgich.

Shunday qilib, Dehqonobod koni dolomitini sulfat kislotasi bilan qayta ishlab 1000 kg $Mg(NO_3)_2$ o'g'iti va 1250 kg qurilish alibasteri ($CaSO_4 \cdot 0,5H_2O$) lariga qayta ishlashning samaradorligi isbotlandi. Bunda har bir tonna magniy nitrat olinganda 9590704 so'm yoki 761,16 \$ AQSh dollarigacha iqtisodiy samaradorlikka erishilgan.


Dissertatsiyaning «**Dolomitni sulfat va xlorid kislotalari bilan bosqichma-bosqich parchalab kalsiy sulfat digidratidan poligidratiga va magniy xloritlarga qayta ishlash jarayonini tadqiqoti**» nomli oltinchi bobida Mahalliy dolomit xomashyosini sulfat va xlorid kislotalari bilan bosqichma-bosqich parchalash jarayonini tadqiq qilish va uni gips ($CaSO_4 \cdot 2H_2O$) dan qurilish alibasteri ($CaSO_4 \cdot 0,5H_2O$) va bishofit ($MgCl_2 \cdot 6H_2O$) lariga qayta ishlash jarayonlarining texnologik parametrlari o'rnatilgan va ishlab chiqarishning prensipial va material balans sxemalari ishlab chiqilgan.

Shuningdek "PAA-gel va Struktol SB 2195" SPMning ko'pik karraligi va fil'trlanish tezligiga ta'siri hamda nordon bo'tqani filtrlash orqali qattiq va suyuq fazalarga ajratish, nordon bo'tqa va undan ajratilgan suyuq fazaning reologik hossalari (zichligi va qovushqoqligi) aniqlangan. Dolomitni sulfat va xlorid kislotalari bilan parchalash jarayonlarida hosil boladigan ko'pikni kamaytirish maqsadida 1 (bir) tonna dolomitga nisbatdan 10, 20 va 30 g/t miqdorda "PAA-gel va Struktol SB 2195" SPM dan foydalanilgan, natjada fil'trlanish tezligining oshishi va ko'piklanish tezligining kamayishiga erishilgan. Bunda dolomit xomashyosini sulfat va xlorid kislotalari bilan bosqichma-bosqich parchalashda konsentratsiyasi 20 %, meyori 105 % - li H_2SO_4 va HCl bilan 50 °C haroratda va


qattiq:suyuq faza q:s = 1:4,48 nisbatda parchalash jarayonida hosil bo‘lgan ko‘pik karraligiga SPM (“PAA-gel” va “Struktol SB 2195”) larning ta’sir o‘rganilgan bo‘lib, aniqlangan natijalar qo‘yidagi 11 va 12 rasmlarda keltirilgan.



11-rasm. Dolomitni 20 % li (H_2SO_4+HCl) bilan qayta ishlash jarayonida hosil bo‘ladigan ko‘pik va ko‘pik karraligiga 1 tonna dolomitga nisbatan 10, 20 va 30 gr/t SPM (“PAA-gel”)ning ta’sir darajalari diagrammasi



12-rasm. Dolomitni 20 % li (H_2SO_4+HCl) bilan qayta ishlash jarayonida hosil bo‘ladigan ko‘pik va ko‘pik karraligiga 1 tonna dolomitga nisbatan 10, 20 va 30 gr/t SPM “Struktol SB 2195” ning ta’sir darajasini diagrammasi



13-rasm. Dolomitni sulfat va xlorid kislotalari bilan parchalab kristallangan bishofit olishning prensipial texnologik sxemasi: 1 - bunker; 3, 5 - bak; 2, 4, 6 - rasxodamer; 2 - shnek; 7 - reaktor; 8, 12 - filtrlar; 9, 14 - sig'imli suyuqlik yig'gichlar; 10 - nasos; 13 - barabanli quritgich.

Shunday qilib, SPM siz parchlashdan olingan natijalarga nisbatan, parchalash jarayonidagi ko‘pik karraligiga, bir tonna dolomitga 10 gr/t “PAA-gel” va “Struktol SB 2195” lardan qo‘shib parchalashdagi ko‘piklanish darajasiga nisbatan solishtirganimizdagi ko‘pik karraligi 1,09 va 1,63 martagacha 20 gr/t SPM qo‘shilganda 1,39 va 1,57 martagacha va 30 gr/t SPM qo‘shilganda 1,93 va 1,63 martagacha SPM midoriy ta’sirida ko‘pik karraligining kamayganligi aniqlangan.

Suningdek, laboratoriya sharoitida tajriba modeli qurilmasida o‘tkazilgan tadqiqotlar bishofit ($MgCl_2 \cdot 6H_2O$) ishlab chiqarishning texnologik sxemasini ishlab chiqish uchun asos bo‘lgan (13-rasm).

Shunday qilib, Dehqonobod koni dolomitini sulfat va xlorid kislotalari bilan qayta ishlab 1000 kg $MgCl_2 \cdot 6H_2O$ tuzi va 940 kg qurilish alibasteri ($CaSO_4 \cdot 0,5H_2O$) lariga qayta ishlashning samaradorligi isbotlandi. Bunda har bir tonna magniy xloridi olinganda 6 713 280 so‘m yoki 532,80 \$ AQSh dollarigacha iqtisodiy samaradorlikka erishilgan.

XULOSA

1. Dolomitni nitrat kislotasi bilan parchalash jarayonlari o'rganilib, jarayonning optimal texnologik parametrlari aniqlandi: bunda nitrat kislotasi konsentratsiyasi 40 %, stexiometrik meyor 100 %, dolomitni parchalashdagi harorat 40 °C va jarayon davomiyligi 30 minut bo'lib, magniyni eritmaga o'tish darajasi 99,81-99,98 % ni tashkil etgan.

2. Texnologik parametrlarga nitrat kislotasi konsentratsiyasi 40 % va meyor 110% bo'lgan sharoitda qattiq faza tarkibi va eritmaga dolomit komponentlarini ajralish darajasiga ta'siri o'rganilgan. Natijada, harorat 20-60 °C va parchalanish jarayoni davomiyligi 10-60 minut bo'lishi kalsiy va magniyni ajralib chiqishiga sezilarli darajada ta'sir qilmasligi bilan izohlanadi.

3. Azot kislotali ekstrakt bo'tqasi tarkibidagi erimas qismlarni tindirish yo'li bilan ajratish bo'yicha tadqiqotlar dolomitning yirik zarrachalari yetarli darajada tez cho'kishi va 3 minutdan keyin cho'kish darajasi 100 % ga yetishi aniqlandi. Suspenziyani tinish darajasi juda sekinlik bilan boradi va 120 minutdan keyin 83-86 % ni tashkil etadi. Filtrlanish tezligi quyqa, nam cho'kma va filtrat bo'yicha haroratning 20 °C dan 60 °C gacha ortishi bilan 770,75 kg/m²·s dan 1190,79 kg/m²·s gacha ortadi.

4. Gazsimon ammiak bilan pH muhiti 8 gacha yetkazilganda magniysizlantirish darajasi 7,03 % ni tashkil etishini ko'rsatdi. pH muhiti 10 gacha oshganda 85 % magniy cho'kadi va pH 10,5-11 bo'lganda esa amalda 100 % to'liq cho'kadi. Dolomitni nitrat kislotali parchalash eritmalaridan magniy gidroksidini ajratish jarayonlari bilan izohlanadi.

5. Ammoniyashtirish darajasining suyuq faza tarkibiga Mg(OH)₂ ajratguncha va ajratilgandan keyingi tarkibiga hamda hosil bo'lgan suyuq azot-kalsiyli va azot-kalsiy-magniyli o'g'itlarni qo'llash uchun mos ko'rsatgichlari sifatiga ta'siri o'rganilgan. pH 7-8 bo'lgan o'g'it tarkibida (og'ir.%): N – 15,4; CaO – 9,53; MgO – 3,35 va pH 10,5-11 bo'lganda magniy gidroksid ajratib olingandan keyin (mass.%): N – 20,5 % 4; CaO – 9,32; MgO – 0,13 % ni tashkil etgan.

6. Aylanma eritmalarini qayta ishlab turli xildagi suyuq va donador o'g'it ko'rinishida Mg(OH)₂ olish usullari ishlab chiqilgan. 20-50 % miqdorda ammiakli selitrani kiritib, suyuq o'g'itlar tarkibidagi azot miqdorini 10,41 dan 18,61 % gacha oshirish va tarkibida N – 16,09-18,61 %; CaO – 4,17-4,81 %; MgO – 1,34-1,55 % bo'lgan o'g'itlarni olish imkoniyatlari keltirilgan.

7. Suyuq ammiakli selitra va aylanma eritma asosida ammiak-kalsiyli selitra olish bilan aylanma eritmani qayta ishlash usullari ishlab chiqilgan. pH-8 bo'lgan aylanma eritmalariga ammiakli selitra 1:1 nisbatda kiritilganda umumiy azot miqdori 34,00 % dan 31,32 % gacha kamayadi. Umumiy azot miqdori 27 % bo'lgan ammiak-kalsiyli selitra olish uchun ammiakli selitra:kalsiy nitrat 2:1 nisbatni olish kerak. Ammiakli selitrada nisbatan ammiakli-kalsiyli selitraning yong'in, portlash xavfliligi va tovar xossalari yaxshilangan.

8. Dehqonobod koni dolomitini nitrat kislotasi bilan parchalash orqali magniy gidroksid olish texnologik sxemasi, materiallar oqimi sxemasi va moddiy balanslari ishlab chiqildi. Aylanma eritmalar va dolomitni parchalanish

mahsulotlarini qayta ishlab, suyuq va donador azot-kalsiyli, azot-kalsiy-magniyli o'g'itlar, ammiak-kalsiyli selitralar olingan.

9. Dolomitdan magniy gidroksidi va suyuq azot-kalsiyli o'g'itlar olishning tajriba-sanoat uskunasi uchun vaqtinchalik texnologik reglamenti ishlab chiqildi. Texnik-iqtisodiy asoslar dolomitni magniy gidroksidi hamda suyuq va donador azot-kalsiyli va azot-kalsiy-magniyli o'g'itlarga kompleks qayta ishlashning yuqori samaradorligini nomoyon qiladi.

10. Mahalliy dolomit xomashyosini sulfat kislotasi bilan parchalab, $MgSO_4$, $CaSO_4 \cdot 2H_2O$, K_2SO_4 , $MgCl_2 \cdot 6H_2O$ hamda suyuq va donadorlangan magniyli o'g'itlarni olish texnologiyasi ishlab chiqilgan. Bunda Dehqonobod koni mahalliy dolomit xomashyosini sulfat kislotasi bilan parchalash jarayonini jadallashtirish va $MgSO_4 \cdot 4H_2O$ eritmasi va flatatsion KCl laridan konversiya usulida kaliy sulfat o'g'itlarini olishning maqbul sharoitlari, optimal texnologik parametrlari hamda ishlab chiqarishning prinsipial texnologik sxemasi va material blans hisoblarini ishlab chiqilgan.

11. Dehqonobod koni dolomit xomashyosini kontsetratsiyasi 20 - 40 % li H_2SO_4 bilan parchalash jarayonidagi ko'pik karraligini va balandligini "PAA-gel va Struktol SB 2195" SPM ning 10 gr/tonnaga nisbatan solishtirganimizdagi ko'pik karraligi 1,00 va 1,06 martaga va 1,3 va 1,23 martagacha kamayganligi hamda 20 gr/tonnada 1,09 va 1,10 martaga hamda 1,41 martagacha kamayganligi, 30 gr/tonnada 1,09 va 1,04 martagacha kamayganligi texnologik parametrlar ta'sirlari va kimyoviy tahlillar asosida aniqlangan.

12. Mahalliy dolomit xomashyosini sul'fat va nitrat kislotalari bilan bosqichma-bosqich parchalash jarayonini jadallashtirish va uni suyuq va kristall ko'rinishidagi $CaSO_4 \cdot 2H_2O$, $Mg(NO_3)_2$, $(NH_4)_2Mg(NO_3)_2$, $(NH_4)_2Mg(NO_3)_2 \cdot 4H_2O$ va suyuq va donadorlangan magniyli o'g'itlariga qayta ishlashning optimal sharoitlari va texnologik parametrlari o'rnatilgan.

13. Dehqonobod koni dolomit xomashyosini kontsetratsiyasi 20 % li H_2SO_4 va HNO_3 bilan parchalashda "PAA-gel va Struktol SB 2195" SPMning 10, 20 va 30 gr/tonnaga nisbatan solishtirganimizdagi fil'trlanish tezligi bo'tqa bo'yicha 1,06 - 1,10 martaga va 1,10 - 1,12 martagacha ortganligi, 30 % li H_2SO_4 da fil'trlanish tezligi bo'tqa bo'yicha 1,14 - 1,21 martaga va 1,10 - 1,26 martagacha ortganligi va 40 % li H_2SO_4 da fil'trlanish tezligi bo'tqa bo'yicha 1,28 - 1,40 martaga va 1,09 - 1,51 martagacha SPM ta'sirida ortganligi aniqlangan.

14. Mahalliy dolomit xomashyosini sulfat va xlorit kislotalari bilan bosqichma-bosqich parchalash jarayonini tadqiq qilish va uni bishofit ($MgCl_2 \cdot 6H_2O$) va gips ($CaSO_4 \cdot 2H_2O$) lariga qayta ishlash jarayonlarining texnologik parametrlari o'rnatilgan va ishlab chiqarishning prinsipial va material balans sxemalari ishlab chiqilgan hamda "PAA-gel va Struktol SB 2195" SPMning ko'pik karraligi va fil'trlanish tezligiga ta'siri aniqlangan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/05.05.2023.К/Т.35.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ ИНСТИТУТЕ ОБЩЕЙ И
НЕОРГАНИЧЕСКОЙ ХИМИИ**

ТАШКЕНТСКИЙ ХИМИКО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

МИХЛИЕВ ОЙБЕК АВЛОЁРОВИЧ

**РАЗРАБОТКА КОМПЛЕКСНОЙ ТЕХНОЛОГИИ ПЕРЕРАБОТКИ
ДОЛОМИТОВ МИНЕРАЛЬНЫМИ КИСЛОТАМИ В СОЕДИНЕНИЯ
МАГНИЯ, ЖИДКИЕ И ГРАНУЛИРОВАННЫЕ УДОБРЕНИЯ**

**02.00.13 – Технология неорганических веществ и материалов на их
основе**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА
ТЕХНИЧЕСКИХ НАУК (DSc)**

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора наука (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером B2024.4.DSc/T776.

Диссертация выполнена в Ташкентском химико-технологическом институте. Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский) (резюме) размещен на веб-странице Научного семинара (www.ionx.uz) и информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz)

Научный консультант: **Мирзакулов Холтура Чориевич**
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Кучаров Бахром Хайриевич**
доктор технических наук

Тураев Зокиржон
доктор технических наук, доцент

Умиров Фарход Эргашевич
доктор технических наук, профессор

Ведущая организация: **Фарганский политехнический институт**

Защита диссертации состоится «15» январь 2025 г. в «10⁰⁰» часов на заседании Научного совета DSc.02/05.05.2023.K/T.35.02 при Институте общей и неорганической химии по адресу: 100170, г. Ташкент, ул. Мирза Улугбека, 77-а. Тел.: (+99871) 262-56-60; факс: (+99871) 262-79-90; e-mail: ionxanguz@mail.ru

Диссертация зарегистрирована в Информационно - ресурсном центре Института общей и неорганической химии за № 48, с которой можно ознакомиться в информационно - ресурсном центре (100170, г. Ташкент, ул. Мирза Улугбека, 77-а. Тел.: (+99871) 262-56-60; факс: (+99871) 262-79-90.

Автореферат диссертации разослан «26» декабрь 2024 года.

(протокол рассылки № 48 от «26» декабрь 2024 г.).



Н.Х. Усанбоев

Председатель научного совета по присуждению
учёной степени, д.т.н., профессор

Ж.С. Шукуров

Учредитель секретарь научного совета по присуждению
учёной степени, д.т.н., профессор

Ш.С. Намазов

Председатель научного семинара при научном совете
по присуждению учёной степени,
д.т.н., профессор, академик.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. С развитием химической промышленности и нанотехнологий в мире растет и спрос на различные химические соединения. В связи с этим в химической промышленности - соединения магния, бишофит, гидроксид магния, оксид магния, сульфат и нитрат магния, сельскохозяйственная¹ в сети. Особое место занимают жидкие и гранулированные комплексные удобрения, содержащие кальций и магний. При этом коэффициент воздействия питательных веществ жидких удобрений на растения очень высок, что экономически эффективно даже в условиях засухи и недостатка водных ресурсов. Большое значение имеет разработка научных и технологических основ получения этого типа химических соединений.

В мире минерал доломит перерабатывают различными способами. Проводится ряд научных и практических исследований по получению солей кальция и магния, удобрений с различными питательными элементами и разработке технологий их эффективного извлечения. В этом отношении, разработка технологии переработки доломита минеральными кислотами в гидроксид магния и оксид магния, обработка оборотного раствора, из которого отделяется магний, отделение гипса и переработка сернокислой вытяжки, содержащей сернокислый магний, с флатационной солью хлорида калия с получением сульфата калия, доломита в смесь минеральных кислот, сульфата и получение жидких и кристаллических нитрата магния и бишофита путём разложения селитрой и серной и соляной кислотами особое внимание уделяется производству в промышленных масштабах.

В нашей республике путём переработки магнийсодержащего сырья химическая промышленность производит соединения магния и кальция, достигаются определенные научные и практические результаты. В новой стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы «Увеличение объёмов производства промышленной продукции путём продолжения промышленной политики, направленной на обеспечение стабильности национальной экономики и увеличение доли промышленности в валовом внутреннем продукте»³ определены важные задачи, на решение которых направлена деятельность. В связи с этим доломит перерабатывают на гидроксид и оксид магния, оборотные растворы для получения жидких и гранулированных азотно-кальциевых удобрений, разложение доломита серной кислотой, серной и азотной кислотами, серной и соляной кислотами, а также соединения магния - нитрат магния, сульфат и хлоридов производство жидких и кристаллических солей и сульфата калия и строительного гипса, а также технология производства сульфата калия и хлорида магния конверсией сульфата магния хлоридом калия.

Постановления Президента Республики Узбекистан ПФ-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», PQ-4265 от 3 апреля 2019 года «Меры по дальнейшему реформированию

химической промышленности и повышению ее инвестиционная привлекательность» о мерах» от 28 декабря 2020 года PQ-4937 «О мерах по реализации инвестиционной программы Республики Узбекистан на 2021-2023 годы» от 13 февраля 2021 года PQ-4992 «Дальнейшее реформирование предприятий химической промышленности и Финансовое. Настоящее диссертационное исследование служит в определенной степени выполнению задач, определенных в решениях «О мерах по развитию санитарии, производства химической продукции с высокой добавленной стоимостью» и нормативных правовых документах, связанных с этой деятельностью.

Соответствие исследований приоритетным направлениям развития науки и технологий в республике. Данные исследования проводились в соответствии с VII приоритетным направлением развития науки и техники в республике «Химические технологии и нанотехнологии».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации².

Научные исследования, направленные на переработку рассолов, морской воды и природных пластов в поваренную соль, бишофит, оксид магния, сульфаты натрия и калия, проводятся ведущими мировыми научными центрами и высшими учебными заведениями, в том числе US Magnesium LLC и Mineral Research Development (США), Israil Chemicals Limited ICL и Dead Sea Magnesium Ltd (Израиль), SDIC Xinjiang Luobopo Potash Co Ltd., Jinzhou Huacheng Magnesium Company и Weifang Bell Chemical Co Ltd (Китай), Rima Industrial (Бразилия), Magnochrom (Сербия), POSCO (Южная Корея), ИБ «Карабогазсульфат» (Туркменистан), Харьковский политехнический институт (Украина), РКТУ им. Менделеева и Институт прикладных исследований Республики Башкортостан (Россия), Ташкентский химико-технологический институт и Институт общей и неорганической химии (Узбекистан).

Ряд научных результатов был получен в результате всемирных исследований по смешанной озерной, морской воде и обработке рассола, в том числе: рассол Большого Солёного озера Юты и солнечный бассейн с рассолом Мертвого моря - научная основа получения бишофита путем выпаривания с использованием испарительного и вакуумно-испарительного оборудования. Созданы (Great Salt Lake Minerals Corp, Kaiser Refractories and US Magnesium LLC, США, Dead Sea Magnesium Ltd, Израиль); Разработан метод получения гидроксида и оксида магния путем смешивания морской воды с обожженным доломитом или известью или путем аммонификации смеси рапы озера Сиваш и волгоградского бишофита (South Bay Salt Works Chula Vista, США и Jinzhou Huacheng Magnesium Company, Китай, «Бром ОАО, Украина, ИЧБ «Каустик», Россия); Первичный (металлический) магний, титановый сплав и сталь производились путем глубокой переработки соленых озер и морской воды (Rima Industrial Brazil; Magnochrome, Сербия; POSCO, Южная Корея; Chaoyang Jinda Titanium Co. Ltd, Китай); Мирабилит, эпсомит и бишофит добывались из верхних и нижних водоносных горизонтов залива Кора-Богаз-Гол («Карабогазсульфат» ИБ, Туркменистан); разработаны способы переработки кальцинированной соды на хлориды

кальция и натрия, углекислый газ и оксид кальция, цементную добавку, дефолиант и почвенное вяжущее (Sterlitamak “Soda”, “Lisichan soda”, Россия, Украина и Ташкентский химико-технологический институт и институт общей неорганической химии).

Серия чистых солей сульфата натрия и калия, бикарбоната натрия, ведутся исследования по следующим приоритетным направлениям получения чистых солей хлоридов натрия и магния, в том числе: озерный рапа и смешанные соли—является комплексным физико-химическим определить характеристики; разработать способ очистки их от присадок; переработка рафинированного рапа в бишофит и гидроксид магния; создание комплексной технологии переработки сульфатно-хлоридной соли в сульфат и хлорид натрия, оксид магния; переработка отходов содового производства в целевую продукцию.

